

**PEDAGOGLAR HAMDA O'QUVCHILAR O'RTASIDA
HAMJIHATLIKNI MUSTAHKAMLASHNING
PSIXOLOGIK USULLARI**

Tajiboyeva Kumushoy Ro'zimboyevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Beruniy tumani 11-maktab psixologi

Annotatsiya: Ma'lumki, maktab hayotida o'quvchilar har tomonlama rivojlanib voyaga yetishadi: Ham jisman, ham ruhan, ham manan. Ularni bilim va tarbiyasi uchun javobgar bo'lgan shxslar hissoqlangan o'qituvchilar esa ularga o'z farzandlarini tarbiyalagandek, bor bilim va g'ayratlarini namoyon etishadi. Lekin shunday vaziyatlar bo'ladiki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi konflikt vaziyatlar sodir bo'ladi. Bu esa o'qituvchidan vaziyatga to'g'ri baho berishni, bu ziddiyatlarni bartaraf etish shakllari, metodikasini puxta egallashni talab etadi. Quyida bu konfliktlarni bir qanchasi bilan tanishamiz:

Kalit so'zlar: xulq – atvor, maktab o'quvchisi, O'smirlar, qadr – qimmat, boshlang'ich sinflar, ruhiy holat, tushkunlik

KIRISH

Psixologlar o'z navbatida, kim boshlang'ich sinfda yaxshi o'qigan, tartibli bo'lsa, o'smir yoshiga kelib qo'pol, tez intizomsiz bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Boshlang'ich sinfda o'qituvchi o'rnatgan tartib – intizomga so'zsiz bo'ysunish o'rnini o'z insoniy qadr – qimmatiga ortiqcha baho berish tuyg'usi egallaydi. Ilgari boshlang'ich sinflarda o'qituvchining so'zidan xafa bo'lmagan o'smir yuqori sinf o'qituvchisining aynan shu so'zidan norozi bo'ladi.

O'smirlarda o'zligini anglash kattalar bilan bo'lib o'tadigan munosabatlarning yomonlashuvi bilan o'zaro almashinib turishi kuzatiladi. Bo'lajak o'qituvchilar uchun mo'ljallab chop etilgan qo'llanmalarda qayd etilgan o'smirlar xarakter xususiyatlariga doir umumiy tasavvurlar ana shulardan iborat. Ko'p sonli tadqiqotlarda o'smirlarning ijtimoiylashuvi masalasida qimmatli ma'lumotlar uchraydiki, ularga asoslangan holda o'qituvchi va o'quvchilar munosabatlarida yuz beruvchi konfliktlarni pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri hal etish mumkin bo'ladi.

Bu sohada o'smirlarning muomalaga kirisha olish tiplariga doir tadqiqot natijalari qiziqishga loyiqdir. Bularning uch turi farqlanadi.

1. Odamovi maktab o'quvchisi. Yolg'izlikka moyil. U tengdoshlari bilan muloqotga kirishganda toliqadi. Noqulaylik his etadi. Yolg'iz qolganida, it, mushuk va boshqa predmetlar bilan qolganda o'zini yaxshi his etadi.

2. Juft – juft muloqotga moyil o'quvchi tipi. Uning o'zi ishonadigan do'sti bo'lishi lozim. Ularsiz yashay olmaydi, zerikadi. Ko'p hollarda do'stlashuv ijobiy munosabatning yuzaga kelishi bilan tugashi, yoki buning aksi ro'y berishi mumkin.

3. Jamoaviy muloqotga moyil o'quvchilar. Ulardan stixiyali ravishda sog'lom yoki nosog'lom dasturga ega bo'lgan o'smirlar jamoasi tashkil topishi mumkin.

Agar birinchi tip konfliktli sharoitda ruhiy zo'riqishni bir o'zi boshdan kechiradigan bo'lsa, ikkinchi tip, ayniqsa uchinchi tipga mansub o'quvchilarda tabiiy ravishda tashqi himoya to'sig'iga ega bo'ladilar. O'smirlar o'qiydigan sinflarda konfliktga kirishuvchilar soni keskin kengayadi, chunki endi ular boshlang'ich sinfdagidek bir o'qituvchi bilan emas balki, o'nlab – yigirmatalab o'qituvchilar bilan



muloqotda bo'ladilar, demak, konfliktga kirishuvlari ham mumkin.

Intizomga oid konfliktlar Intizomga oid bo'lgan, o'quvchilar va ayrim hollarda o'qituvchilar tomonidan sodir etiladigan ruhiy zo'riqish hamda ziddiyatlar, ta'lim jarayonida maktab intizomiy qoidalari va tartibining buzilishiga doir tipik holatlarning statistik manzarasini tavsiflash muhim ahamiyatga molikdir. Salbiy xulq – atvorga doir faktlar orasida o'qituvchi tomonidan sodir bo'ladigan holatlar farqlanadi.

“Yaxshi” va “Yomon” o'quvchilarga munosabat usuli

Xalqaro munosabatlardagi konflikt faqat taraflarning qarama- qarshi kurashi sifatida birgina harbiy harakatlardan iborat bo'lib qolmaydi. Zo'rlik vositalarisiz hal qilinadigan diplomatik konflikt, savdo, chegara, siyosiy konfliktlar bo'lishi mumkin “Chegaradan chiquvchi etik” konfliktlar termini boshlang'ich sinf o'qituvchilari xulq – odobida namoyon bo'luvchi qo'pol g'ayripedagogik munosabatshakllarini aniqlashda qo'llaniladi.

O'quvchilar orasidagi konfliktlar.

O'quvchilarning har xil predmet o'qituvchilarining metodik tayyorgarligiga bo'lgan e'tirozlari ko'pincha to'g'ri bo'lib chiqadi.

O'quvchilarning bu sohadagi e'tirozlari quyidagicha: tushuntira olmaslik, sistemasiz, palapartish bayon, tilning o'rinsiz murakkabligi, takrorlashning yo'qligi, materialni quruq bayon qilish, mavzuni hayot bilan bog'lay olmaslik, xo'ja ko'rsinga "mavzuni" bajarish, predmetga qiziqish uyg'ota olmaslik, xolis baholash olmaslik, arzimagan javobga yuqori baho qo'yish, barcha o'quvchilarga faqat "3" baho qo'yish va hokazo.

O'smirlar o'qituvchilar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari jarayonida maktabning birinchi pog'onasida ta'lim oluvchi boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan anchagina farq qiladi. Bunday ziddiyatlarning o'smir yoshi bilan bog'liq jihatlari nimalardan iborat? O'smir yoshining oliy o'quv yurti pedagogika va psixologiyasida o'qitiladigan tavsifnomasiga murojaat qilamiz.

Pedagogika nazariyasining tegishli bo'limida o'smirlik yoshi bolalik va katta yosh holatining oralig'ida ekanligi qayd etiladi. Pedagogika qo'llanmasi mualliflari "o'prilishli" (krizisli), "qiyin", "o'tish", "konfliktli", "og'riqli" kabi terminlarni ko'p qo'llaydilar. O'quvga bo'lgan qiziqishning sustligi o'smir uchun xos. U romantik tuyg'ularga berilgan bo'ladi. O'smirda jinsiy bilimlarga bo'lgan qiziqish uyg'ongan bo'ladi. U o'z kuch va qobiliyatlariga yuqori baho beradi. Kattalarga taqlid qilish, ularga o'xshashga harakat qilishga intiladi. A.S.Makarenko fikricha, o'smirlar – bu haqiqiy risarlar. Ular qo'rqmasdan pedagog orqasidan o'zini o'tga ham suvga ham uradi, agar u haqiqiy ustoz bo'lsa.

XULOSA

Shuni alohida qayd etish kerakki, o'smir – o'quvchilar bilan predmet o'qituvchilari orasida konfliksiz hamkorlik umuman uchramaydi. Bu o'smirlar yaxshi o'qituvchilar masalasida omadsizlar degan gap emas. Gap shundaki, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarda ham o'quvchilardagi kabi ruhiy zo'riqish uchrab turadi. Konfliktologiya fani bo'yicha nazariy qoidalarga asoslangan holda bir necha pedagogik jihatdan ahamiyatli tushuntirishlarni keltiramiz. Konfliktida qatnashuvchi tomonlar safida ta'lim-tarbiya jarayoni qatnashchilarining barchasi ishtirok etishi mumkin. Shu jumladan, o'quvchilarning ota-onalari, metodik xizmat rahbarlari, boshqaruv apparati xodimlari ham. Yuzaga kelishi jihatidan boshlang'ich sinflarda konfliktlar kutilmaganda, oldindan rejalashtirilmagan holatda sodir bo'ladi. Bu konfliktning eng xavfli variantidir, chunki bunday paytda vaqt yetishmasligi tufayli o'qituvchi xato harakatlarga yo'l qo'yishi ehtimoli bor. Xuddi ana shunday paytda taqlidiylik o'qituvchini yo'ldan urishi, kutilmagan to'qnashuv nihoyatda og'riqli, jarohatli bo'lishi mumkin. To'satdan yuz beruvchi konfliktlardan tashqari xarakteri va kechishi jihatidan tipik bo'lgan ziddiyatlar ham mavjud. Bunda o'qituvchi o'z

tajribasiga tayangan holda u yoki bu qadar ilgari ishlab chiqilgan ssenariy asosida ish ko'radi. Ularni yuz bergan vaziyatga bir qadar moslashtirishga to'g'ri keladi, xolos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Петровская Л.А. О понятийной схеме социально-психологического анализа конфликта. М., 1977г.
2. Работа с конфликтом: навыки и стратегия действия. Лондон, Конфликтологический центр, 2001. С.23.
3. Berdiyev G. o'quvchilarda shaxslararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari.// Xalq ta'limi, №6,1998, B. 61-65.
4. Jo'rayev R. Q., Safarova R. G'., Ibragimov X. I., Musayev U. q. Pedagogika fani Konsepsiyasi. // Xalq ta'limi, 2004, № 5, B. 8-31.
5. Internet materiallari